



O'ZBEK TILIDAGI BO'G'INLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11033456>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2024
Accepted: 19th April 2024
Published: 22ND April 2024

KEYWORDS

*fonetika, bo'g'in, og'zaki va
yozma bog'in*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek tilidagi bo'g'in haqida umumiy
ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini
bolalarga yaxshilab o'rgatish imloviy xatoliklarning oldini
olishda yordam beradi.*

Bo'g'in-nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik ba'zan bir so'zga teng) segment birlik. Bir va bir necha tovushlardan tashkil topadi va bir havo zarbi bilan chiqadigan tovush va tovushlar birikmasiga bo'g'in deyiladi. So'zning eng kichik birliki bu bo'g'in hisoblanadi. Masalan gul, lola(lo-la), ona(o-na), ota(o-ta), bola(bo-la). Fonologik nuqtayi nazardan bo'g'in sillabema deyiladi, uni o'rganadigan soha esa sillabika deb nomlanadi.

Sillabema- bo'g'inning fonologik birlik sifatidagi nomi

Sillabika-bo'g'in haqidagi ma'lumot

Har bir bo'g'inning asosini unlilar tashkil qiladi unlilarsiz bo'g'in hosil qilib bo'lmaydi. So'zda nechta unli harflar bor bo'lsa shuncha bo'g'in hosil qilamiz. Ba'zan ikki bo'g'in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: muddat (mud-dat) kabi. Bu hodisa geminatsiya hodisasi deyiladi. Bo'g'inni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganamiz.

1. Berkitilgan bo'g'in bunda so'zlar undosh harflar bilan boshlanadi: qiyshiq qiy-shiq bunda birinchi va ikkinchi bo'g'in ham undosh bilan boshlangan, uzum u-zum (-zum) bunda esa ikkinchi bo'g'ini undosh bilan boshlangan, nonvoy non-voy (non) bunda esa birinchi bo'g'in undosh bilan boshlangan berkitilgan bo'g'in deyiladi. CV, CVC
2. Berkitilmagan bo'g'in bunda so'zlar unli harflar bilan boshlanadi: olma ol-ma (ol) bunda birinchi bo'g'in unli bilan boshlangan bo'g'in, V, CV
3. Ochiq bo'g'in bunda bo'g'inning tugash qismi unli bilan tugashi kerak bo'ladi: olti so'zining ikkinchi qismi (-ti) unli bilan tugagan ochiq bo'g'in hisoblanadi. V, CV

4. Yopiq bo'g'in bunda esa tugash qismi undosh bila tugashi kerak bo'ladi: qiyshiq so'zining har ikki qismi ham yopiq bo'g'indan tashkil topgan bo'g'in hisoblanadi. VC, CVC

Bo'g'inning pedagogik-metodik ahamiyati ham bor; birinchi sinf o'quvchilariga to'g'ri yozish va o'qishni o'rganishlari uchun juda ham kerak bo'ladi.

Orfografiyada ham juda zarur bo'lgan qoidalardan bir bu bo'g'in ko'chirish qoidalari yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi;

Adabiyotda ham she'rlarning vaznini aniqlash uchun turoqlarga bo'lganimizda ham bizga bo'g'in juda ham zarur.

Tarkibidagi bo'g'inlar soniga ko'ra so'zlar bir bo'g'inli (ish, ko'k, kam, oz, besh, yuz, sen, pisht, ol, yoz); ikki bo'g'inli (da-la, qush-cha, yax-shi, shar-bat, qi-zil, ik-ki, ol-ti, o't-tiz, ni-ma, ham-ma, o'-qi, ish-la, bor-di, bu-gun, se-kin, bi-lan, xud-di, ...); ko'p bo'g'inli (qo'-g'ir-choq, a-ra-va-cha, pla-ne-ta-riy, ...) bo'ladi.

So'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tovush nutqning bo'g'in (yoki so'z) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo'linmaydigan birligidir: bola so'zi 4 ta tovushdan (b, o, l, a) iborat.

Bo'g'inga ajratish bilan bo'g'in ko'chirishning asosiy farqi bor. Bo'g'inga ajratishda unlining o'rni katta lekin bo'g'in ko'chirishda faqat unliga qarab ajratib bilmaymiz. Masalan: ona bu so'zni bo'g'inga ajratgan paytimizda o-na tarzida ajratilda, agar shu so'zni bo'g'in chirish qoidalarida ko'chirsak buni iloji yo'q chunki bitta harf satrni oxirida ham qolmaydi yangi satrga ham o'tmaydi shu sababli bu so'zni bo'g'inga bo'lmaymiz faqat bo'g'in ajratish qoidalariga to'g'ri keladi.

Bo'g'in ko'chirishning bir necha qoidalari bor:

Ko'p bo'g'inli so'zlarning bir necha bo'g'ini birinchi satrga sig'may qolsa, ikkinchi satrga bo'g'in ko'chirish qoidalari asosida ko'chiriladi.

So'zning bosh va oxirgi bo'g'inida bir harf bo'lsa u keyingi satrga ko'chirilmaydi. Masalan abadiy (a-ba-diy)emas aba-diy holatda bo'ladi.

Uch undosh bir joyda kelsa bir undosh birinchi qatorda keyingi ikki undosh esa keyingi satrga ko'chiriladi. Masalan silin-drik

Bir tovushni beruvchi harflar birikmasi bir-biridan ajralmagan holda ko'chiriladi. Si-ngil, so-chim, sing-lim, ko'ng-lim

Bosh harflardan iborat qisqartmalar ham bo'g'inga ajratilmaydi: AQSH, BMT, MDH

Ko'p xonali raqamlar ham satrdan satrga ko'chirilmaydi: 1993, 17,7

Insonlarga atab qo'yilgan ism, familyalar ham bo'g'inga bo'linmaydi: Nazarova Bonu

Shuningdek, *v.b. (va boshqalar)*, *sh.k. (shu kabilar)* singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H Hozirgi o'zbek adabiy tili TOSHKENT 2005
2. Qosimova. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish-1964
3. Shodmonov. E, Nafasov.T Hozirgi adabiy tili



INNOVATIVE
ACADEMY